

O‘zbekiston Respublikasi

Xalq ta’limi vazirligi

**O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va
psixologik-pedagogik respublika tashxis
markazi**

**Alohida ehtiyojlari bo‘lgan
o‘quvchilarni psixologik
qo‘llab-quvvatlash usullari**

nomli metodik tavsiya

Toshkent–2022

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining 2022-yil 27-sentabrdagi 3-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori L.R.Gaynutdinovanning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

S. Mo‘minov	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.
M. Kasimova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.
G. Alimova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.
Sh. Axmedova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti.

Taqrizchilar:

F. Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrası mudiri p.f.d., (Dsc) professor.
L. Tursunov	p.f.d., dotsent. Nizomiy nomidagi TDPU Amaliy psixologiya kafedrası dotsenti.
Q. Matxoliqov	t.f.n., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jahon tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi.

Ushbu “Alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash usullari” nomli metodik tavsiya umumta’lim maktablaridagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus o‘qituvchilar, maktab psixologlari, umumta’lim maktabi qoshidagi logopedik shoxobcha o‘qituvchi-logopedlari, maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalari (Tyutorlar) hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

KIRISH

Inklyuziv sinfda alihida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari

Mustaqillikka erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda ta'lim amaliyotida tarbiyalanuvchilarga bilimlarni tayyor holda berishdan voz kechilib, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularni ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda. O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish konsepsiya, ta'lim standartlari, dastur, darslik, metodik hamda o'quv qo'llanmalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruxan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ustuvorlik kasb etmoqda.¹

Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirishdan voz kechilib, o'rniga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, tuyg'ularning injaligi, ko'ngil istaklari ustuvorligiga milliy an'analarga tayangan holda erishishga alohida diqqat qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"²- deb ta'kidlab o'tganlar.

Shu o'rinda, ta'lim tizimidagi islohotlarning boshlang'ich nuqtasi bo'lib maktabgacha ta'lim tashkilotlari xizmat qilsa, boshlang'ich ta'lim jarayoni esa bolaning keyingi ta'lim shakllarini o'zlashtirishi uchun pillapoya rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib, boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi bolalarning fiziologik, ijtimoiy, psixologik, ma'naviy holatini, mazkur yosh davriga xos bo'lgan xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashish – bolaning shaxsiy kamolotga erishishiga zamin yaratadi. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar va o'smirlar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda maxsus ta'limning yo'nalishlari (aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar) bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etilgan. Xalqaro miqyosida ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-6155-sonli Farmoni.

² Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent. - M: "O'zbekiston". 2016.- B.120.

islohotini demokratiyalashtirish va diskriminatsiyaga qarshi kurashish natijasida jamiyatning dunyoqarashi o'zgarib, har xil toifadagi kishilar orasida yangicha yondashuv, o'zaro hurmat, ijobiy munosabat shakllandi. Maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini qayta ko'rib chiqish siyosati amalga oshirila boshladi. Ko'pchilik mamlakatlar "Segregatsiya" ta'limidan voz kechib imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiya jamiyatiga mansub bo'lgan integratsion ta'limni tadbiq qilishni lozim topdi. Keyinchalik inklyuziv ta'limga o'tila boshlandi. Bu o'rinda L.S.Vigotskiyning fikricha: "Maxsus maktablarimizning afzallik jihatlari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari bilan ham ajralib turadi, u o'z tarbiyachisini tor doiradagi maktab jamoasi bilan chegaralab: kar, ko'r yoki aqli zaif bolaning asosiy e'tiborini o'zida mavjud bo'lgan kamchiligiga qaratib barcha sharoitni shu nuqsoniga moslashtirib qo'yadi. Bularning barchasi bolaning haqiqiy hayotga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Maxsus maktab bolani chegaralangan dunyodan chiqarish o'rniga odatda shunday ko'nikmalarni rivojlantiradiki, oqibatda uning separatizmligi kuchayib u o'z dunyosiga yanada chuqurroq sho'ng'ib ketadi". Sog'lom bolani alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola bilan uyg'unlashtirilishi maxsus ta'limni keng doirada qayta ko'rishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi kerak. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning dolzarbligi shundaki alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning yengil darajalilarini ham maxsus maktablarda ta'lim olib kelayotganligidir. Baholangki ular umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar jamiyatga tezroq integratsiyalashib keta oladilar. Shuni ta'kidlash joizki, inklyuziv ta'lim sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib oiladan ajralmagan holda ta'lim-tarbiya olishga muvassar bo'ladi. Shuningdek alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning umumta'lim tizimida ta'lim olishining afzalligi shundaki ta'limga sarflanadigan sarf harajat maxsus ta'limga nisbatdan kamayadi. Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi, ya'ni rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash masalasi O'zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Inklyuziv ta'lim asoslari

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi, va yutuqqa erishishiga yordam beradi. Yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim bu davlat

siyosati bo'lib nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir. Barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim. Ya'ni millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, manbai, moddiy va ma'naviy ahvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'limdir. **Inklyuziv ta'lim** umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. **Inklyuziv ta'lim** har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi (bir parallel sinfda 2 ta sinf tashkil qilinadi). Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida

xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish, jamiyatda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish kabilardir.

- ta'lim muassasasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish;

- ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish;

- ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

Inklyuziv ta'lim alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga nima beradi?

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

- o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

Tengdolariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi, ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish–insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar;

O'quvchilarda atrofda insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi;

Sharqning mashxur allomalari **Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning** tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik ba'zasi hisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. **1970-1980 yillarga** kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi alohida ta'limga ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqlidir. Bola, u qanday holatda va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtojdir. Uni ajratish yoki alohida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga nisbatan "anomal bolalar", "nogiron bolalar", "ko'r bolalar", "kar bolalar", "aqli zaif bolalar", "harakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar" va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni huquqlarini poymol qiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning huquqlarini himoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muhim usulidir. Shuning uchun ham tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ota-onalari bilan hamkorlikdagi faoliyat

Ma'lumki, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy oila va oiladagi shaxslararo munosabatlardir. Shu bois bola tarbiyasi va ta'limi samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ota-onalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi darajasi bilan belgilanadi. Bu ularning o'z farzandlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, aqliy rivojlanish sifatining asosiy xususiyatlari va ularning yosh me'yorlariga muvofiqligi va hissiy-ijobiy ijtimoiy roli hisoblanadi.

Oilaning pedagogik va psixologik xususiyatlari, bola tarbiyasida oila va oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini A. I. Gersen, P. F. Kapterev, A. C. Makarenko, P. F. Lesgaft, V. A. Suxomlinskiy, S. T. Shatskiy, K. D. Ushinskiy, Ye. A. Flerina kabi olimlarning ilmiy-tadqiqotlarining obekti bo'lgan. Bola tarbiyasida oilaning

rolini o'rganib, mazkur olimlar oila tarbiyasi ahamiyatini takidlab o'tganlar. I. P. Volkova, Ye. V. Korotayeva, A. B. Mudrika, A. A. Raduginaning ilmiy tadqiqotlarida oilaviy tarbiya ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tarbiyaning asosiy omili sifatida o'rganilishini e'tirof etganlar.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaning rivojlanishi ko'p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta'lim ta'siriga bog'liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko'ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko'p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola ham o'qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo'lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola ko'proq mehanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam bo'lib, bu bir tomonlama charchoqqa olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo'lishishga harakat qilishimiz natijasida esa bunday bolalar jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ota-ona va o'qituvchining teng hamkorlikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. UNISEFning inklyuziv ta'lim bo'yicha tavsiyalaridagi "Oilaning alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar ta'limida butun hayoti, ayniqsa, rivojlanishining ilk davrlaridagi ishtiroki muhim rol o'ynashi", "Ota-onalar va mahallaning jalb etilishi sinfda va sinfdan tashqarida ham inklyuziv ta'limning sifati uchun muhim" ekanligi va "Ota-onalar va maktab o'rtasidagi ijobiy munosabatlarning bolalarning hayotiy pozitsiyasi va ta'lim sohasidagi yutuqlariga ta'sir etishi", "Bu nafaqat alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar, balki ota-onalar, sinfdoshlar, pedagoglar va maktab uchun ham foydali" ekanligi kabi qator omillar inklyuziv ta'lim sharoitida maktab va ota-onalar hamkorligining dolzarbligidan dalolat beradi³.

Ilmiy jihatdan olib qaraganda, "Ota-onalar jamoasi inklyuziv ta'lim muhitida o'zining tarkibi, manfaatlari, mavqei va ehtiyojlari bo'yicha turlichadir, munosabatlar va aloqalari bo'yicha mazkur jamoa o'zining ichida ham doimiy uyg'un shakllanmaydi. Bu o'z navbatida inklyuziv ta'limning getorogenligi va polisub'ektivligi bo'yicha xos xususiyatlarini belgilab beradi".

Ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashga harakat qilishadi, uning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, ijtimoiy va aqliy infantilizmdan qochib, unga tegishli mashg'ulotlar, keyingi ish uchun kasbga yo'naltirish berishadi. Bu ota-onalarning pedagogik, psixologik, tibbiy bilimlarining mavjudligiga bog'liq, chunki bolaning moyilligini, uning nuqsoniga munosabatini, boshqalarning munosabatiga bo'lgan qarashlarini aniqlash va baholash, unga ijtimoiy moslashishda yordam berish, o'zini-o'zi anglashni maksimal darajaga ko'tarish uchun maxsus bilim kerak.

³ Участие родителей, семьи и сообщества в инклюзивном образовании. Технический путеводитель. ЮНИСЕФ, 2014.
https://www.unicef.org/eca/sites/unicef.org/eca/files/Booklet%2013%20-%20Russian%20Version_0.pdf

Uy bolaning tarbiyalaydigan asosiy maskani hisoblanadi. Agar bola uyda o'zini yaxshi his qilsa, u maktabda ham o'zini dadilroq his qiladi. Ota-onalarga inklyuziv ta'limga jalb etilgan bolalarni oilaviy tadbirlarga va oilaning kundalik hayotiga qay tarzda jalb qilishni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etuvchi masala hisoblendi. Oilaning barcha a'zolari alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bola bilan muloqotda bo'lishlari lozim. Ota-onalarga bolaning javobini kutishga, uning fikrini bolani mustaqil tanlovga va qarorlar qabul qilish hamda rag'batlantirishga o'rgatish lozim.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni uy ishlariga jalb qilish daxldorlik va mas'uliyat hislarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Eng og'ir rivojlanish buzilishiga ega bola ham nimanidir amalga oshirishi-qo'ldan kelgancha buyumlarni tartibga keltirishda, idish-tovoqlarni yuvishda, taom tayyorlashda, ko'chatlar ekishda va hokazo ishlarda qatnashishi mumkin.

Ota-ona dars mashg'ulotlarida ham ishtirok etib, bolaning yutuqlaridan quvonayotganligini, unga bo'lgan ishonchini amaliy tarzda namoyon etishi kerak. Olib borilayotgan ta'lim jarayoniga o'z munosabatini bildirish, farzandining olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishiga ko'maklashishi ota-onaning muhim vazifalaridan biridir. Shuningdek ota-onalarning faolligini oshirish maqsadida ta'lim maskanida trening mashg'ulotlari, davra suhbatlari ham maktab hayotida muhim o'rin tutadi. Bunday mashg'ulotlarni ko'p marotaba o'tkazish natijasida o'quvchilarda milliy qadriyatlarga va oilaning muqaddas ekanligiga oid bilimlari rivojlanadi. Sinf o'quvchilari o'rtasida o'zaro do'stona muhit yanada mustahkamlanadi.

Inklyuziv ta'limni tizimli, samarali joriy etish ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning shakllari, usullari, ko'lam va sifati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim muassasalaridan alohida mas'uliyat va innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash

Zamonaviy maktabda inklyuziv ta'limni tashkil etish muammolari birinchi navbatda maktabning ichki madaniyati va standartlari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda avvalombor o'qituvchilarning o'zlarini psixologik tayyorgarliklarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining inklyuziv ta'limni amalga oshirishga qaratilgan psixologik tayyorligi ostida ta'limdagi yondashuvni, biz yaxlit, shaxsiy ta'limni tushunamiz. Ijtimoiy, ahloqiy, psixologik umumiylikni ifodalovchi va yuqori malakaga ega bo'lishga imkon beradigan professional fazilatlar va qobiliyatlar, samarali faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydigan, alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolani ta'lim

jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarga jalb qilish bo‘yicha samaradorlik darajasida imkon berish kerak.

O‘qituvchining kasbiy ishonchi, hissiy va motivatsion inklyuziv muhitda ishlashga tayyorlik ko‘p jihatdan maktabni inklyuziv jarayonni amalga oshirishga tayyorlash bo‘yicha to‘g‘ri tuzilgan ishlarga bog‘liq. Ta’limga inklyuzivlikni rivojlantirish sharoitida o‘qituvchi ba’zan psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini tashkil etishi kerak, ba’zan esa psixologik yordam va nazorat, ya’ni kasbiy tajribani professional darajada birgalikda tahlil qilishda, aniq holat, salbiy his-tuyg‘ularni yengish lozim. Bunday yordamni ko‘rsatish uchun maktab psixologi o‘z ishiga mas’uliyat bilan proffsional tarzda yondoshishi muhimdir. O‘qituvchi va o‘quvchilar bilan muloqot qilish va ularning psixologik holati va xususiyatlarini o‘rganishi, o‘z maslahatlari bilan konsultatsiya berishi hamda o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil qilish usullarini bilishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchining ishonchi uslubiy yordamga ega professionalni shakllantirish uchun muhimdir. Rivojlanish talab etiladigan umumiy pedagogik texnologiyalar, rivojlanayotgan dars modellari, qo‘llab-quvvatlash va bolalarning hamkorligi, ota-onalarni pedagogikaga jalb qilish ta’lim sifatini oshishiga omil hisoblanadi. O‘qituvchining o‘quvchilarga moslashuvchanligi, o‘quvchini darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish va boshqa tomondan ta’lim jarayoni doirasini saqlash, bolaning imkoniyatlarini ko‘ra olish, ularni iqtidorlarini namoyish qilishga yordam berib ijodiy salohiyatini oshirish, o‘quvchini erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish ularni qo‘llab-quvvatlash borasida ishlar amalga oshiriladi.

Bizga ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolalarda ilk taassurotni “Mehribon ona” qiyofasida gavdalantiradi. Aksariyat bolalar maktab tomon ko‘kka qanot qoqib parvoz etayotgan qushdek uchib keladi. Bu jarayonda alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni maktabga qabul qilish unga e’tibor berish esa yanada mas’uliyatlidir. Avvalo inklyuziv ta’limga jalb etilgan bola o‘qituvchida o‘z onasidek mehribonlik, shirinso‘zlik hislatlarini ko‘rishi kerak. Buning uchun esa, o‘qituvchi bolaning oilasi bilan yaqindan tanishib oladi. O‘qituvchi bu borada ota-onalarga sinfdagi bolalar soni, ushbu bolalar ta’lim ehtiyoji bo‘yicha qay darajada, odatda, bolalar sinfda va tanaffus vaqtlarida nima bilan shug‘ullanadilar, sinfda o‘zini tutish qoidalari, o‘qituvchi darsda va darsdan tashqari qanday usullarni qo‘llaydi, sinfdagi bolalarning munosabatlari, qanday uy vazifalari berilishi haqidagi dastlabki ma’lumotni beradi.

Birinchi navbatda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiruvchi mashg‘ulotlarni olib boriladi. O‘qituvchi bola uchun samarali o‘quv materiallari va usullarini tanlab olishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek rasmlar, raqamli va tarmoq resurslaridan, o‘quv filmlaridan, audio yozuvlardan ham foydalanishi mumkin. Mashg‘ulotlarga materiallarni tayyorlashda

bolaning qiziqishlari, bajara olish imkoniyatlari hisobga olinadi. Mashg'ulotlar davomida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan boladan vazifalarni sinfdagi boshqa bolalardan qabul qilingani kabi qabul qilinadi va ruhlantiriladi. Yutuqlarini va kamchiliklarini ham o'z o'rnida tushuntiriladi. Bunday jarayon alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolada o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bolaning boshqa bolalardan kam emasligi, uning ham o'ziga yarasha qobiliyati va iste'dodi bor ekanligini yuzaga chiqaruvchi ta'limiy va tarbiyaviy usullardan foydalanish juda muhim. Agar inklyuziv ta'lim jarayonida o'zaro ko'ngilli muhit yuzaga kelsa va unda bolalar faol ishtirok etsalar, bunday ta'lim barcha bolalar uchun foydali va yaxshi naf keltiradi. Hamkorlik umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlashni anglatadi. Birgalikda ta'lim olish dars o'tish jarayoning faol shakli bo'lib, unda bolalar kichik guruhlarda muayyan topshiriqni bajarish uchun birgalikda ishlaydilar. O'zaro guruhlarda ko'proq bellashuvlar, viktorinalar, taqdimotlar o'tkazish natijasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarda faollik oshadi. Shuningdek mustaqil va erkin fikrlash jarayonlari ham oshadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak-ki, o'qituvchi boladagi iste'dodni ko'ra bilishi kerak. Uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun o'quvchidagi qobiliyat va imkoniyatdan samarali va oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish va o'qitishning samarali usullaridan foydalanishda alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolaning bilim darajasi va imkoniyatlarini e'tiborga olinadi. Bunday yondoshuvlar alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan boladagi qo'rqish, tortinchoqlik kabi hislatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ayniqsa, tortinchoqlikni sinfda do'stona muhitni yaratish orqali bartaraf etiladi. Sinfdoshlari unga nisbatan achinish bilan qaramasliklarini oldini olish, o'qituvchidan kattagina pedagogik mahorat talab etadi.

Inklyuziv ta'limda maxsus o'qituvchi kim va uning vazifalari nimalardan iborat

Har bir inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi.

- Har bir alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning kuchli tomonlarini aniqlash va qaysi sohalarga ehtiyojiini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta'minlaydi;

- o'qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

- milliy dastur asosidagi ta'limni samarali o'zlashtirilishida muhim o'rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

- o'quvchilarning bilimini nazoratini to'g'ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

- o'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog'liq bola rivojlanishining o'ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

- maktabda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

- ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Maktab psixologining inklyuziv ta'limdagi o'rni va vazifalari:

Maktab psixologi yillik ish rejasiga inklyuziv sinfda ta'lim olayotgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash yuzasidan bandlar kiritadi. Maktab psixologi har bir o'quvchining psixik salomatligini himoyalash, psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish, psixoprafilaktik hamda psixokorreksion ishlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchini individual rivojlantirish (oilada va inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim berish) dasturlarini tuzish;

- o'quvchilar bilan guruhlarda mashg'ulotlar olib borish;

- o'quvchilarni doimiy ravishda psixologik-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

- har bir alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib psixologik korreksion ishlarni olib borish;

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchini maktabga moslashish jarayonida psixologik ko'mak berish;

- kuzatish, suhbat, savol-javob anketalardan hamda metodikalardan foydalanib bolaning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Inklyuziv ta'limning yana bir ishtirokchilari Tyutorlardir:

Tyutor boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maxsus o'qituvchiga bevosita yordam beradi. Inklyuziv sinf o'quvchisi dars hamda mashg'ulot davomida zerikib yoki toliqib qolsa bolani aylantirib keladi. Korreksion mashg'ulotni tashkil qilishda ham ishtirok etadi.

- ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni engishga ko'maklashadi;

- ta'lim jarayonining individuallasuvi (individual ta'lim dasturlarini tuzish va sh.k.) uchun sharoitlar yaratadi;

- o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

- ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan inklyuziv sinfdagi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan mashg'ulot jarayonini tashkil etish

Maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlaridan kelib chiqib ular bilan yakka va guruhli tarzda mashg'ulotlar olib borish;

- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular bilan birgalikda sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish;

- ota-onalarga o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasi bo'yicha maslahatlar berish;

- tibbiyot xodimlari bilan birgalikda har bir o'quvchining shu jumladan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy yuklamasini tartibga solish.

Maktabdagi tibbiyot xodimi

Tibbiyot xodimi: Maktabda tibbiyot xodimi tomonidan o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi.

- o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi;

- korreksion-pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi;

- o‘quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan xamkorlikda ularni sog‘lomlashtirish ishlarini olib boradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki maktab jamoasidagi inklyuziv ta’lim ishtirokchilari birdek harakati natijasi o‘laroq alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar sifatli va samarali ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maktabning pedagogik jamoasi tomonidan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning zarur shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: -tengdoshlarni tomonidan qo‘llab-quvvatlash va do‘stona munosabatlar.

-ijobiy psixologik iqlimni o‘rnatish, atrof-muhitni insonparvarlashtirish va bolalarning anomaliyalariga nisbatan bag‘rikenglikni oshirish, ushbu bolalarga nisbatan qadriyat va insoniy munosabatlarni shakllantirish.

- har bir o‘quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda profilaktik ishlarni amalga oshirish.

- o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalaridan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o‘quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o‘qitish va baholash.

- inklyuziv sinf o‘qituvchilariga o‘quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlari to‘g‘risida ma’lumotlarni berish.

- muntazam ravishda o‘quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash.

- maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

- o‘quvchilarni imkoniyatlaridan kelib chiqib seminar va tadbirlarda ishtirok etishini ta’minlash.

- o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

- mavjud barcha resurslar (o‘quv adabiyotlar, o‘qitish qurilmalari va boshqa asboblari) bilan ta’minlash.

Sinf va guruxlarda inklyuziv ta’lim tushunchasini to‘g‘ri targ‘ib qilish va rivojlantirish

Bolalar ongida irqchilik, nogironlik hamda imkoniyatlar kengligi hususida to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishda juda xam muhim ahamiyat kasb etadi. Noto‘g‘ri tushunchalarning mavjudligi sababli alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar haqorati va masxaralanishiga duchor bo‘lmoqdalar. Bundan ham ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulq-atvorni ayrim o‘qituvchilarning e’tiborsiz qoldirayotganligidir. Ta’lim-tarbiya

samaradorligini oshirish uchun ham barcha maktablarda hamma bolalar uchun teng huquqli, sevimli, do'stona iliq munosabatdagi muhitni yaratish lozim. Maktabda irqchilikni, nogironlik ustidan kulishni qo'ralanishi va o'rtasidagi teng huquqlilik tushunchasini shakllantirish kerak. Quyida bolalar o'rtasida teng huquqlilikni tushunchalarni shakllantirish borasida tavsiyalar berildi:

- Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o'z hayotlari va his tuyg'ularini muhokama qila oladigan o'zoro qo'llab –quvvatlovchi va hamjihatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim;

- O'quvchilar ongiga nogironlik – alohidalik emas, balki kamchilikni majudligi natijasida imkoniyatlar chegaralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qo'rqish, jirkanish hislarini yo'qotishga erishish talab etiladi.

Pedagoglar ayrim holatlarda stereotiplarni qo'llashdan qochishlari va tashabbuslari qo'llashdan keyin ham bolalar oldida sharxlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo'yish, masqara qilish, salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo'l qo'ymasliklari talab etiladi.

Zarur bo'lgan holatlarda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarda ayrim o'quvchilar tamonidan berilayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muhokama qilish o'rinli hisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun ohirgacha kurashish lozim.

Har bir muhokama bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga solishtirib, qayd etib, ta'kidlab borish muhimdir. O'quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o'tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao. O'qituvchilar ishlarini va ularning yutuqlarini barcha sohalarida maktab va maktabdan tashqari ishlarda namoyish qilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaning ijobiy namunalari ham qo'llash juda samara beradi. Kitob, plakatlar va dasturlarni qo'llayotib, shunga ishonch hosil qilish kerakki, ular inklyuziv ta'limga mos kelishi kerak. Maktablar ochiq bo'lishi, o'quvchilar, otalar va pedagoglar bilan muloqat qila bilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar

Aravacha yuradigan yoki xassa va boshqa moslamalar orqali harakatlanuvchi bolalar uchun sinfdagi harakatlanish joylarini yetarli ekanligiga ishonch hosil qilish uchun quyidagilarga e'tibor bering:

- Ko'rish va eshitish qiyinchiliklariga ega bolalar gilam va partalar orasida butun sinf faoliyatida ishtirok eta oladigan tarzda o'tirganlariga ishonch hosil qiling;

- Ta'lim olishda qiyinchilikka uchraydigan va bunda ta'lim olish imkoniyatlarini qo'llay olishlariga ishonch hosil qiling;

- Turli xil tibbiy muammolarga ega bolalarning ayrimlari tez-tez ovqatlanish, suyuqlik ichish, imkoniyatidan kelib chiqib hojatxonaga boshqalarga qaraganda ko‘proq borish ehtiyojiga ega bo‘ladilar. Bunday bolalar o‘zlarini noqulay his etmasliklari uchun zarur shart-sharoitlarini yaratishga e‘tibor qarating;

- Uzoq muddatlik tik tura olmaydigan bolalarni ham e‘tibordan chetda qoldirmang.

- Agar bolaga diqqatni jamlash yoki ko‘rinmas yashirish (autizim yoki giperfaollik natijasida diqqatning yetishmasligi) natijasida tinch o‘tirishga qiynalsa, boshqa o‘quvchilar aytilgan vazifalar bilan mashg‘ul bo‘lsalar ham diqqati tarqoq o‘quvchilarning bir nafas dam olishlariga imkon bering.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, inklyuziv muhitda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ijtimoiy vakolatlari va muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi. Bu ko‘p jihatdan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ushbu yoshga xos bo‘lgan ijtimoiy va kommunikativ kompetentsiya modeli tashuvchisi sifatida harakat qiladigan sog‘lom tengdoshlari bilan ijtimoiy o‘zaro aloqalari uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega ekanligi bilan bog‘liq.

Inklyuziv muhitda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar yanada boy o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim-tarbiya oladilar. Buning natijasida ularning bilim, ko‘nikma, malaka va o‘qishdagi yutuqlari yaxshilanadi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qabul qilish inklyuziv sinflarga xos bo‘lgan kichik guruhli o‘qitish orqali yaxshilanadi. Bolalar boshqa o‘quvchining nogironlik chizig‘ini u bilan kichik guruhda topshiriq bo‘yicha ishlash orqali “kesib o‘tishadi”. Asta-sekin oddiy bolalar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ko‘p o‘xshashliklarini anglay boshlaydilar.

Inklyuziv boshlang‘ich sinflarda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar o‘rtasidagi do‘stlik odatiy holga aylanadi. Bu ayniqsa alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar yashash joylari yaqinidagi maktabga boradigan va shuning uchun maktabdan tashqarida sinfdoshlari bilan uchrashish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lgan holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday do‘stlikni o‘rnatish va mustahkamlashda o‘qituvchilar etakchi rol o‘ynaydi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan tengdoshlariga ta’lim va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishlariga yordam berish orqali sog‘lom bolalar o‘zlari bilmagan holda eng muhim hayotiy saboqlarni o‘rganadilar.

Ushbu ijobiy tajriba ijtimoiy ongning o‘sishidan, odamlar o‘rtasida tafovutlarning yo‘qligini anglashdan, o‘z-o‘zini anglash va qadr-qimmatini rivojlantirishdan, o‘z printsiplarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, keyin esa samimiy tashvish va do‘stlikni targ‘ib qiladi. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, zamonaviy umumiy ta’lim dasturi inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlar va shartlarni, ya’ni har bir alohida o‘quvchining

individualligini qabul qilishni va har bir bolaning alohida ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga olishi kerak.

Har bir bola-kichik sayyora, ana shu sayyorani doimo quyosh misoli yoritib, bilim nurlaridan bahramand etish, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni esa doimo bizning qo'llab-quvvatlashimiz asosida ularni har tomonlama barkamol avlod etib voyaga yetkazish biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir.

Kuzatilishi mumkin bo'lgan muammolar

Ota-onalar farzandini qayerga berishni bilmay keladi (maxsus maktab-internat va inklyuziv ta'limga)

Muammoli vaziyat

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanida istiqomat qiluvchi bir oilaning zaif eshituvchi 7 yoshli farzandi (Bilol) bor. Ota-ona farzandini ta'lim olishini istab atrofdagilardan maslahat so'ragan. Ularga Bilolning ta'lim olishi uchun ikki xil yo'l tavsiya etildi:

1-yo'l Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus maktab-internatga berish.

2-yo'l Umumta'lim maktablarida tashkil etilgan inklyuziv sinfga berish.

Siz qaysi yo'lni tanlagan bo'lar edingiz va nima uchun?

Muammoni qanday qilib yechimini topgan bo'lar edingiz?

Muammoning yechimi

Bilolning ota-onasi farzandini inklyuziv sinfga berishni xohladi. Ota-ona birinchi navbatda farzandini maktabda ta'lim olishi uchun tuman xalq ta'limi bo'limiga murojaat qildi. Xalq ta'limi bo'limining tegishli hodimlari tomonidan ota-onaga muammosiga oid ta'limdagi yangiliklar to'g'risida tegishli ma'lumotlar berildi hamda ota-onaning qiziqtirgan savollariga to'liq javob berildi. Bilolni (viloyat, tuman) tibbiy pedagogik psixologik komissiyaga yo'naltirildi. Tibbiy pedagogik psixologik komissiya xulosasiga asosan Bilolga tashxisiga ko'ra inklyuziv ta'limga yo'llanma berildi. Xozirda Bilol tumandagi inklyuziv sinfda sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olmoqda.

Sog'lom bolalarning ota-onasi Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar haqidagi fikrlari va sinfda bo'lishi xohlamasligi

Muammoli vaziyat

Namangan viloyati Davlatobod tumanida Namozovlar oilasi uchun bugun juda quvonchli xabar berildi, ya'ni endi ularning ko'rishida muammosi bo'lgan zaif ko'ruvchi farzandi endi umumta'lim maktabida o'qiydigan bo'ldi. Ular shu vaqtgacha farzandini ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatiga berishni o'ylab yuragi jizillar, hammani farzandiga o'xshab ruchka bilan qo'llarida emas,

brayl alifbosida yozishini o‘ylash ichlarini kemirardi. Barcha qatori Namozovlar farzandi ham umumta’lim maktabiga chiqdi. O‘qituvchi ushbu o‘quvchini qiynalmasligi uchun sinf taxtasini oldidagi 1-partaga o‘tkazdi. Dars boshlandi, o‘qituvchi har bir narsani o‘quvchilardan fikrini bilish uchun so‘raganda Namozovlarning farzandi o‘zini qanday his qilishini hatto daraxt barglarining ovozi borligini va ular ham sekin raqsga tushaolishini, ranglarning ajib tovlanishini, oddiy tuyulgan narsalarda ham ajib go‘zalliklar yashirin ekanligi aytdi. O‘qituvchi uni maqtadi va sinfimiz **“a’lochisi”** deb rag‘batlantirdi.

Dars tugagandan keyin o‘quvchilarni ota-onasi olib ketishgani keldi. Shu sinf o‘quvchisi Kumushning onasi bugun dars qanday bo‘lganligini va nimalar o‘tilganligini so‘radi. Shunda Kumush bugun sinflariga Namozovlarning farzandi kelganligini, u darsda aytib bergan gaplari hamda uning ko‘zida qalin lupali ko‘z oynagi borligini aytib berdi. Shunda uning oyisi- **“hammalarining o‘sha **“ko‘r, jinni”** bolani eshitib o‘tirdinglarmi, o‘qituvching nima dedi”**- deb so‘radi? Kumush u o‘quvchini o‘qituvchi **“a’lochisi”** deb maqtaganligini aytdi. Bu gapni eshitib Kumushning oyisini jahli chiqib ketdi va ertaga maktabga borib kerak bo‘lsa Tuman XTB ga borib hammasi bilan gaplashib qo‘yishini aytdi. Kumush hech narsaga tushunmadi. Ertalab Kumushning onasi to‘g‘ri Davlatobod tumani XTB ga keldi va janjal ko‘tardi. Nega bunaqa bolani umumta’lim maktabiga olib kelganligini hamda endi qolgan o‘quvchilar ham unga o‘xshab qolishini, turli xil g‘ayri odatiy gaplarni aytib yuboradimi dedi? Kumushning onasi bu o‘quvchini sinfdan olish shartini qo‘ydi.

Muammoning yechimi

Kumushning onasini murojaati bo‘yicha tuman(shahar) xalq ta’limi bo‘limining Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash markazi mutahassislariga yo‘naltirildi. Kumushning onasiga mutahassislar tomonidan yangi qabul qilingan qonunlar tanishtirildi. Unga asosan so‘g‘lom tengdoshlari bilan birgalikda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning ham inklyuziv sharoitda bir hilda ta’lim olishi va ularning so‘g‘lom bolalar va alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar hayotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatishi to‘g‘risida tushunchalar berildi. Kumushning onasi mutaxassislar tomonidan berilgan ma’lumotlarni tingladi hamda o‘ziga tegishli xulosaga ega bo‘ldi.

Dastlab inklyuziv sinf o‘qituvchisining dars jarayonini tashkil qilishda hamda natijaviyligini ko‘rsatishdagi sekinlikdan, ota-onalar va sinf o‘qituvchisi alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchini o‘zlashtirish darajasi sog‘lom bolalarnikidek ketmayotganligidan tushkunlikka tushushi mumkin.

Go‘zal Toshkent shahrining maktablaridan birida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi. Bu yil u faoliyat ko‘rsatayotgan maktabda inklyuziv sinf ochilishi haqida habar keldi. Aynan shu yilda Go‘zal ham yangi boshlang‘ich 1-sinfni olishi kerak edi. Maktab rahbariyati tomonidan Go‘zalning sinfini inklyuziv sinf bo‘lishi, chunki inklyuziv sinfga yetarli bilim va malakaga ega kasbini va bolalarni sevuvchi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini taklif qilinayotganini aytdi. Bu gapdan Go‘zal xursand bo‘ldi hamda inklyuziv sinf ochishdan mamnun edi. Inklyuziv ta‘lim to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘di tegishli tashkilotlar tomonidan maqsadli malaka oshirish kurslarida o‘qib o‘rgandi. Sentyabr oyi kelib inklyuziv sinflar ochildi. Go‘zal barcha o‘quvchilar bilan yaqindan tanishib chiqdi. Albatta alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan ham. Darvoqe bu yil Go‘zalning sinfiga ruhiy rivojlanishi sustlashgan ikki o‘quvchi qabul qilingan edi. Go‘zal uchun hayotida yangi sahifa ochilgandi. Chunki bunday o‘z dunyosiga ega bolalar bilan birgalikda sinfda ishlash mashaqqatli ammo zavqli va sharaflidir.

Dastlab o‘quv yilining boshida Go‘zal uchun sinovli kunlar boshlandi. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar sog‘lom tengdoshlari kabi darslarni birdek o‘zlashtira olmas, darsda ba‘zan har hil harakatlar bilan o‘quvchilar diqqatini bo‘lib qo‘yar edi. Bu holatdan Go‘zal tashvishga tushdi. Boshqa o‘quvchilarning o‘qishiga bu bolalarning ta‘siri bo‘lishidan havotirda edi. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni kuzatib ularning o‘zlashtirishi sustligini bartaraf etish va darslarga diqqatini jamlash va faol bo‘lishi uchun yo‘l topishi kerakligini anglab yetdi.

Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi kerak? Qanday qilib alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘zlashtirishini so‘g‘lom tengdoshlari qatoriga nisbatan yetkazishga muvoffaq bo‘lish mumkin?

Muammoning yechimi

Go‘zal maktab psixologi tomonidan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari haqida batafsil bilib oldi. Maktabga kelgan har qanday o‘quvchida moslashish(adaptatsiya) davri kechishini, alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarda moslashuvchanlik ayrimlarida uzoqroq davom etishi haqida tushunchaga ega bo‘ldi. Manaviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari bilan maslahatlashdi. Go‘zalga ota-ona, maktab hamda mahalla bilan birgalikda ishlash orqali muvofaqqiyatga erishish mumkinligi buning uchun qilinishi kerak bo‘lgan masalalar to‘g‘risida kelishib olindi. Go‘zalning darsiga alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ota-onalarini taklif qilindi ular darslarda farzandlarini dars jarayondagi faoliyatini kuzatdilar. Uyda mashg‘ulot o‘tish va vazifalarni bajarish uchun topshiriqlar olar va ota-ona ham farzandlari bilan birgalikda ishlar edi. Undan tashqari mahsus o‘qituvchi tomonidan dars mavzulariga oldindan

tayyorlanish natijasida o'quvchida mavzularni o'zlashtirishida oldinga siljish kuzatildi. Tyutor ham dars davomida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan birgalikda ishlar va ularga darsni mustahkamroq egallashiga yordam berar edi. Shundan qilib Go'zal chorak yakuniga kelib ancha o'quvchilaridan ko'ngli to'la boshladi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda do'stlashib darslarda qatnashishar edi. Yil yakuniga kelib alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar maktabga, sinfdoshlariga va darslarga moslashishgan holda muvofaqqiyatli 1-sinfni yakunladilar.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ota-onasi farzandini kamsitishi holati kuzatilishi mumkin degan hayolga borishi

Iqbola 7 yoshga qadam qo'ydi. Uning eshitishida muammosi bor edi. Yaqinda davlatimiz tomonidan unga koxlear implantatsiya amaliyotini o'tkazilgan. U mahsus ihtisoslashgan maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalangan. Iqbolaning ota-onasi farzandini mahsus maktabga berish uchun hududdagi xalq ta'limi bo'limiga murojaat qildi. Xalq ta'limi bo'limining mutasaddilari ota-onaga farzandini umumta'lim maktablaridagi inklyuziv sinflarga berishni taklif etishdi va inklyuziv sinf haqida ma'lumotlar berdilar. Avvaliga ota-ona farzandini umumta'lim maktabida ta'lim olishidan hursand bo'lib ko'zlariga yosh oldilar. Lekin Iqbolaning onasida havotir paydo bo'la boshladi. Farzandini shu davrga qadar so'g'lom bolalar bilan munosabatga kirishishi kam bo'lganligi uchun so'g'lom bolalar farzandini yaxshi eshitmasligini masxara qilib, kamsitishi va natijada farzandiga bunday holat salbiy ta'sir qilib o'qishdan sovib maktabga borishni hoxlamay qolishidan, qulog'idagi apparatini bolalar ushlab, o'ynab yoki tortib olib qo'yishidan havotirga tushdi. Onada ikkilanish paydo bo'la boshladi.

Bu vaziyatda ota-onaga inklyuziv ta'limning afzalliklari haqida qanday tushuntirish mumkin?

Muammoning yechimi

Xalq ta'limi bo'limining Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazi mutahassislari ota-onaga inklyuziv ta'lim qanday ta'lim va uning mahsus ta'limdan farqli va afzallik jihatlari qandayligini tushuntirdilar. Farzandini inklyuziv sinfga berishi uning kelajagi uchun katta poydevor ekanligini ta'kidladilar. Ota-onada tushuncha hosil bo'lishi uchun mahsus ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilayotgan inklyuziv ta'limga oid videoroliklarni ko'rsatdilar. Ota-ona farzandiga o'xshagan bolalarni inklyuziv ta'limda sog'lom tengdoshlari bilan do'stona munosabatga kirishayotganligini ko'rib ta'sirlandi. Mutahassislari maktab jamoasida inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchisi, mahsus o'qituvchi, psixolog, tyutor va boshqa inklyuziv ta'lim ishtirokchilari farzandiga ta'lim berishiga tayyor ekanligi

ularning ham inklyuziv ta'lim borasida bilimlari yetarli ekanligini tushuntirdilar. Ota-ona inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi va farzandini inklyuziv sinfga berishga qaror qildi. Xalq ta'limi bo'limining mas'ullari bolani tibbiy pedagogik psixologik komissiyaga yo'naltirdilar. Tibbiy pedagogik psixologik komissiya xulosasi asosida Iqbol bu yil yashash hududiga yaqin bo'lgan umumta'lim maktabining inklyuziv sinfga o'qishga chiqadi.

Sog'lom bolalar alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni kamsitishi

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 134-sonli umumta'lim maktabiga 7-yoshli "tayanch harakatida muammosi bo'lgan" Abror ismli o'quvchi qabul qilindi. Bu o'quvchi haqida faqat maktab direktori xabardor edi. Shu orada 1^A sinf xonasiga Abrorni ota-onasi hamda maktab psixologini olib kelishdi. Barchani diqqati birdan Abrorga qarab bo'lindi. Maktab psixologi uni tanishtirib bugundan boshlab shu sinfda barcha bilan birgalikda o'qishini aytdi va ota-onasi bilan birgalikda chiqib ketdi. Qo'ng'iroq chalindi dars tugadi. O'qituvchi sinf jurnalini almashtirib kelish uchun o'qituvchilar xonasiga chiqib ketdi. Sinfda qolgan Abror xattaxtada yozilgan jummalarni ko'chirib olish uchun ruchkasini oldi va yozmoqchi bo'ldi. Ammo uni qo'lidagi muammosi tufayli ruchkasini mahkam ushlab turaolmaganligi sababli polga tushib ketdi. Abror ruchkani olaman deb o'rnidan turdi. U engashib olayotgan vaqti kiyimi stulga tegib yiqilib tushdi. O'quvchilar birdan kulib yuborishdi. Anora – **"ikkichi"** yozaolmas ekan"- dedi. Sobir- **"dovdir"** bu yaxshi yuraolmas ekan ham"- deb baqirib yubordi. Abror yig'lagan holatda ruchkasini bir amallab olib, kiyimlarini qoqdidada asta sekin partalardan ushlab ushlab xonadan chiqib ketdi.

Savol:

- bu yerda kimni qanday kamchiligi bor?
- ota-ona maktabga olib kelmasligi kerak edimi?
- Abrorni qanday yupatish mumkin?
- sinf o'quvchilarida ayb bormi?
- shu vaziyatga qanday baho berasiz?
- siz sinf o'qituvchisi yoki psixologni o'rnida bo'lganizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

Muammoning yechimi

Inklyuziv ta'lim maktabida ochilishidan xabardor bo'lgan maktab direktori o'quv yili boshlangunga qadar maktabning pedagogik kengashida bu haqda maktab

jamoasini habardor qilishi hamda inklyuziv ta'lim qanday ta'lim ekanligi haqida tushuncha berishi lozim. Maktab jamoasi bu o'quv yilida inklyuziv sinfga qanday muammoga ega alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar qabul qilinishi haqida habardor bo'lishi lozim. Maktabda inklyuziv sinflar ochilishi uchun ko'rsatilgan talablar asosida mahsus shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari, shu jumladan, inklyuziv sinf ochilishi rejalashtirilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni qabul qilishga tayyorlanishi, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun maqsadli malaka oshirish o'quv kurslarida o'qishi kerak bo'ladi. O'quv yili boshlangunga qadar otalarni va o'quv yili boshida o'quvchilarni inklyuziv sinfga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni qabul qilinishi to'g'risida habardor qilinishi kerak bo'ladi. Shunda yuqoridagi ko'ngilsizliklarni oldini olingan Abror kabi bolalar inklyuziv sinfdan bimalol ta'lim olishga miyassar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi (<https://lex.uz/docs/-5044711>).
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-4860**-son qaror.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 508-b.
5. R.Sh.Shomahmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Uslubiy qo'llanma. "Chashma print" nashriyoti- 2011-yil. 4 - va 21-betlar.
6. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.
7. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: "Владос", 2013. 83-б.
8. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" xalqaro ilmoy amaliy konferensiya materiallar to'plami. *Toshkent shahri -2011-yil 26-mart*.
9. Azevedo F.S. (2018). An inquiry into the structure of situational interests. *Science Education*, 102(1), –PP. 108–119.
10. Султонова Н.А. Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье // *scientific progress* 2021// 1 (6), 631-635.
11. Юлчибоева, Д. Э. (2021). Определение творческих способностей у детей младшего школьного возраста. *scientific progress*, 7(6), 695698.
12. Bergin C. & Bergin D. (2009). Attachment in the classroom. *Educational Psychology Review*, 21, 141–142-p Retrieved from <https://doi.org/10.1007/s10648-009-9104-0>.
13. Bogart V. (2002). The effects of psychology on the academic achievement of elementary school students. East Tennessee State University. –PP. 81–82.
14. И.Б Сиддигов. Социально-философские аспекты формирования интеллектуальной культуры молодёжи.

Internet saytlari:

15. <https://bmcp psychology.biomedcentral.com/articles/10.1186/s40359-020-00428-y>.
16. <https://www.routledge.com/Primary-School-Teaching-and-Educational-Psychology/Galloway-Edwards/p/book/9780582497160>.

Alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash usullari

nomli metodik tavsiya

Muharrir: M.Talipova
Musahhih: I.Tursunova
Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2022.
Qog'oz bichimi 60x84¹/₁₆. TIMES garniturasida
Shartli bosma tabog'i 4,2. Nashr tabog'i 6,2
Adadi 1000. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti
Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.